BUXORO VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

# BUXORO VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

***2021- YIL YANVAR-IYUN***

***(DASTLABKI MA'LUMOT)***



**Sanoat statistikasi bo`limi**

**Tel.: 65-220-83-06**

# Buxoro viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2021- yilning yanvar-iyun oylarida viloyat korxonalari tomonidan 9044,2 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 100,3 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (95,3 %)ni tashkil etdi.




***B***–*Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash,* ***C***-*Ishlab chiqaradigan sanoat* ***D***-*Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash,* ***E***-*Suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish.*

## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* *% da*




Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi pasayishining asosiy omili bo‘lib, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida - 30,0 % ga pasayishi kuzatildi.

***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.*

# Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati

mlrd. so‘m







*FHI % da*

Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021- yilning yanvar-iyun oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 114,8 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,3 % ini tashkil etdi.

## Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, % da

2020- y % da







2021- y % da

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

**O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da**

| Oltingugurt | Shag‘al | Qazib olish xizmatlari |
|---|---|---|









## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-iyun | 2021- yil yanvar-iyun | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Oltingugurt , t. | 703,0 | 531,0 | -172,0 |
| Shag‘al , t. | 22086,0 | 0 | -22086,0 |
| Neft va tabiiy gaz qazib olish bilan bog‘liq burg‘ilash xizmatlari, mln. so‘m. | 102658,0 | 66374,5 | -36283,5 |

## Ishlab chiqaradigan sanoat




mlrd. so‘m

FHI, *% da*




2021- yilning yanvar-iyun oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 8623,3 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 95,3 % ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi**, *% da*

2020- y







2021- y.

O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2020- yilning yanvar-iyun oylarida – 0,1 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 1,8 % (1,8 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 54,4 % (57,9 %) va quyi texnologiyalisi – 43,7 % (40,2 %) ni tashkil etdi.




Jami sanoat tarkibida koks va neftni qayta ishlash mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi – 43,0 % (2020- yil yanvar- iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 95,3 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi – 23,4 % (2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 113,4 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 17,0 % (2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 117,1 %), boshqa nometall mineral mahsulotlarni ishlab chiqarishning ulushi – 5,8 % (2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 113,2 %) ni tashkil etdi.

# Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘sish sur’ati

2021- yilning yanvar-iyun oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 430,8 ming tonna avtomobil benzini (2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 7,7 % ga o‘sgan), 11,8 ming tonna kalava ip (30,7 %), 809,5 ming litr aroq mahsulotlari (20,6 %) ishlab chiqarilib, yuqori o‘sish sur’atlari kuzatildi.

## O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

### Dizel yoqilg‘isi




### Avtomobil benzini




### Mazut




### O‘simlik yog‘i (tozalangan)




### Yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa




### Yumshoq bug‘doy va spelta uni




### Likyorlar




### Aroq




### Uzum vinosi




### Paxta linti




### Paxta chigiti




### Paxta tolasi



## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-iyun | 2021- yil yanvar-iyun | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Mazut, ming t. | 45,1 | 41,8 | -3,3 |
| O‘simlik yog‘i (tozalangan), t. | 7949,7 | 7194,7 | -755,0 |
| Paxta,tolasi, t. | 57637,6 | 51237,0 | -6400,6 |
| Yumshoq bug‘doy va spelta uni, t. | 46616,5 | 44275,9 | -2340,6 |
| Quyish uchun tayyor beton,t. | 18706,9 | 4108,0 | -14598,9 |
| Avtomobil benzini,ming t. | 399,9 | 430,8 | -30,9 |
| Paxta chigiti, t. | 88532,8 | 74717,0 | -13815,8 |
| Yig‘ma konstruksiyalar elementlari, t. | 11013,9 | 16066,3 | 5052,4 |
| Dizel yoqilg‘isi, ming t. | 344,5 | 232,0 | -112,5 |

## Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish

*(2021- yil yanvar-iyun)*

**FHI *% da***

| | |
|---|---|
| **119,1%** | **2019- y.** |
| **130,0%** | **2020- y.** |
| **95,3 %** | **2021- y.** |

2020- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari sanoatdagi ulushi 47,5 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 30,0 % ga o‘sgan.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-iyun oylarida sanoatdagi ulushi 43,0 % ni, fizik hajm indeksi 4,7 % ga kamayib, ishlab chiqarish hajmi 3885,4 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## To‘qimachilik, kiyim va teri mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

*(2021- yil yanvar-iyun)*

Jami sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-iyun oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 22,4% ni tashkil etgan bo‘lsa, uning fizik hajm indeksi 117,2 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-iyun oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 23,4 % ni, fizik hajm indeksi 13,4 % ga o‘sgan bo‘lsa, ishlab chiqarish hajmi 2116,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi.




## Oziq-ovqat va ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

*(2021- yil yanvar-iyun)*

Jami sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-iyun oylarida oziq-ovqat va ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 15,3 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 112,6 % ni tashkil etgan bo‘lsa,

2021- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat va ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 17,0 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 17,1 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 1539,4 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

*(2021- yil yanvar-iyun)*

Jami sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-iyun oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 5,6 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 129,4 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2021- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning sanoat tarkibidagi ulushi 5,8 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 13,2 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 524,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi.




## Kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoati

*(2021- yil yanvar-iyun)*

Jami sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-iyun oylarida ushbu yo‘nalishda mahsulot ishlab chiqarishning ulushi 2,0 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 110,8 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2021- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko‘ra, shu turdagi mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 2,2 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 41,9 % ga kamaydi va ishlab chiqarish hajmi 195,3 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



# Elektr, gaz, bug‘ bilan taminlash va havoni konditsiyalash

*2021- yilning yanvar-iyun oylarida*

mlrd. so‘m







FHI *% da*

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 230,5 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,6 % ini) tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-iyun oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 11,4 % ga oshganligi kuzatildi.

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, *% da***

2020- y.







2021- y.

## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-iyun | 2021- yil yanvar-iyun | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Elektroenergiya,** *mln.kVt.s* | 3,2 | 3,7 | 0,5 |
| **Issiqlik energiyasi,** *ming gkal* | 466,8 | 488,2 | 21,4 |

## Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish







Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 75,6 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,8 % ini) tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, *% da***







| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-iyun | 2021- yil yanvar-iyun | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar,** *mln.so‘m* | 4607,2 | 9078,6 | 4471,4 |
| **Axlat o‘ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo‘shatish, tozalash va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar,** *mln.so‘m* | 222,1 | 243,9 | 21,8 |

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar 97,1 % ga oshganligi kuzatildi.

## Iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 3652,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 19,3 % ga oshdi, uning jami sanoatdagi ulushi 40,4 % ni tashkil etdi.




Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 2,2 % (2020- yil yanvar-iyun oylarida 2,1 %)ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qorovulbozor tumaniga to‘g‘ri kelib, 20,0 % ni, shuningdek, Buxoro shahri 19,2% ni, G‘ijduvon tumani 11,2 % ni, Jondor tumani 8,3 % ni, Shofirkon tumani 5,2 % ni  tashkil etdi.

Shuningdek, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida viloyat o‘sish sur’ati (119,3 %) darajasidan yuqori ko‘rsatkich Olot (152,5 %), Kogon (141,3 %)  tumanlarida, Buxoro shahri  (138,4 %)  va  Shofirkon (132,2 %) hamda Romitan (128,1 %) tumanlarida qayd etildi.

## Hududlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*2021- yilning yanvar-iyun oylarida*

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Buxoro viloyati | 3652,5 | 100,0 | 119,3 |
| Olot | 90,5 | 2,5 | 152,5 |
| Buxoro | 177,0 | 4,8 | 100,1 |
| Vobkent | 164,9 | 4,5 | 103,2 |
| G‘ijduvon | 409,5 | 11,2 | 122,1 |
| Kogon | 251,6 | 6,9 | 141,3 |
| Qorako‘l | 154,9 | 4,2 | 103,0 |
| Qorovulbozor | 731,5 | 20,0 | 106,8 |
| Peshku | 132,0 | 3,6 | 106,6 |
| Romitan | 173,8 | 4,8 | 128,1 |
| Jondor | 302,1 | 8,3 | 125,4 |
| Shofirkon | 190,3 | 5,2 | 132,2 |
| Buxoro sh. | 700,4 | 19,2 | 138,4 |
| Kogon sh. | 174,0 | 4,8 | 105,1 |

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qorovulbozor tumaniga to‘g‘ri kelib, 30,9 % ni, shuningdek Buxoro shahri 19,8 % ni, G‘ijduvon tumani 11,3 % ni hamda Kogon tumani 6,2 %,Vobkent tumani 5,0 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida yuqori ko‘rsatkich G‘ijduvon tumani (161,9 %), Buxoro shahri (157,1 %), Shofirkon (153,1 %) va Olot (148,5 %) tumanlarida qayd etildi.

## Hududlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*2021- yilning yanvar-iyun oylarida*

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Buxoro viloyati | 2340,8 | 100,0 | 124,1 |
| Olot | 47,0 | 2,0 | 148,5 |
| Peshku | 60,0 | 2,6 | 86,2 |
| Buxoro | 88,6 | 3,8 | 106,6 |
| Romitan | 116,0 | 5,0 | 142,7 |
| Vobkent | 118,3 | 5,0 | 113,7 |
| Jondor | 100,6 | 4,3 | 132,2 |
| G‘ijduvon | 265,5 | 11,3 | 161,9 |
| Shofirkon | 97,1 | 4,1 | 153,1 |
| Kogon | 145,2 | 6,2 | 106,7 |
| Buxoro sh. | 463,5 | 19,8 | 157,1 |
| Qorako‘l | 47,1 | 2,0 | 92,3 |
| Kogon sh. | 69,1 | 3,0 | 106,5 |
| Qorovulbozor | 722,8 | 30,9 | 108,5 |

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Buxoro shahriga to‘g‘ri kelib, 18,1 % ni, shuningdek, Jondor tumani 15,4 % ni, G‘ijduvon tumani 11,0 % ni, Qorako‘l tumani 8,2, Kogon tumani 8,1 % tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida eng yuqori ko‘rsatkich Kogon tumanida (2,5 m.), Olot tumanida (157,0 %) hamda Peshku tumanida (132,7 %) qayd etildi.

## Hududlar bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*2021- yilning yanvar-iyun oylarida*

| | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| **Buxoro viloyati** | 1311,1 | 100,0 | 111,7 |
| Olot | 43,5 | 3,3 | 157,0 |
| Peshku | 72,0 | 5,5 | 132,7 |
| Buxoro | 88,4 | 6,7 | 94,3 |
| Romitan | 57,8 | 4,4 | 106,3 |
| Vobkent | 46,6 | 3,5 | 83,5 |
| Jondor | 201,5 | 15,4 | 122,3 |
| G‘ijduvon | 144,0 | 11,0 | 84,1 |
| Shofirkon | 93,2 | 7,1 | 115,8 |
| Kogon | 106,4 | 8,1 | 2,5 m. |
| Buxoro sh. | 236,9 | 18,1 | 112,3 |
| Qorako‘l | 107,8 | 8,2 | 108,5 |
| Kogon sh. | 104,9 | 8,0 | 104,3 |
| Qorovulbozor | 8,7 | 0,7 | 45,8 |

## Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

*2021- yilning yanvar-iyun oylarida*

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 885,5 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 9,8 % ni tashkil etdi.

# Buxoro viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

*2021- yil yanvar-iyun oylarida*

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Buxoro viloyati * | 9044,2 | 100,0 | 100,3 |
| Olot | 235,8 | 2,6 | 107,1 |
| Peshku | 215,1 | 2,4 | 105,2 |
| Buxoro | 192,3 | 2,1 | 103,3 |
| Romitan | 589,4 | 6,5 | 101,3 |
| Vobkent | 183,1 | 2,0 | 102,1 |
| Jondor | 368,1 | 4,1 | 106,6 |
| G‘ijduvon | 646,4 | 7,1 | 101,2 |
| Shofirkon | 286,6 | 3,2 | 110,8 |
| Kogon | 492,0 | 5,4 | 115,5 |
| Buxoro sh. | 1137,0 | 12,6 | 108,0 |
| Qorako‘l | 266,7 | 3,0 | 97,8 |
| Kogon sh. | 430,5 | 4,8 | 103,5 |
| Qorovulbozor | 4001,2 | 44,2 | 95,7 |

* *Hududlar bo‘yicha taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo‘shgan holda*

## Buxoro viloyati hududlari kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati *% da*




Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish Kogon tumanida (2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 115,5 %), Shofirkon tumanida (110,8 %), Buxoro shahrida (108,0 %) va Olot (107,1 %) tumanida sezilarli darajada oshdi.

Viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarining o‘tgan yilning shu davriga nisbatan pasayish omili bolib Qorovulbozor (2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 95,7 %) tumanida ishlab chiqarish hajmlarining kamayishi kuzatildi.

**Buxoro viloyati jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da**

Viloyat sanoat ishlab chiqarishi hajmi tarkibida eng ko‘p ulush Qorovulbozor tumani (Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 44,2 % i), Buxoro shahri (12,6 %), G‘ijduvon tumani (7,1 %), Romitan tumani (6,5 %), Kogon tumani (5,4 %) hamda Kogon shahri (4,8 %) hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Eng past ko‘rsatkich esa Vobkent (2,0 %) hamda Buxoro (2,1 %) tumanlariga to‘g‘ri kelmoqda.






Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Qorovulbozor tumani (215118,9 ming so‘m), Kogon shahri (6977,2 ming so‘m) va Kogon tumani (6173,2 ming so‘m) o‘rtacha viloyat darajasi ko‘rsatkichidan (4631,4 ming so‘m) ancha yuqoriligini ko‘rsatmoqda.

Viloyat bo‘yicha aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 1870,4 ming so‘m bo‘lgani holda, Qorovulbozor tumanida – 39328,0 ming so‘mni, Kogon tumanida – 3156,7 ming so‘mni, Kogon shahrida – 2820,1 ming so‘mni, Buxoro shahrida 2484,5 ming so‘mni tashkil etdi.

## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*2021- yil yanvar-iyun, ming so‘m*

| | Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|---|
| Buxoro viloyati | 4631,4 | 1870,4 |
| Olot | 2348,8 | 901,8 |
| Peshku | 1721,9 | 1056,6 |
| Buxoro | 1133,7 | 1043,4 |
| Romitan | 4084,2 | 1205,4 |
| Vobkent | 1290,9 | 1162,6 |
| Jondor | 2079,8 | 1706,5 |
| G‘ijduvon | 2098,9 | 1329,5 |
| Shofirkon | 1597,7 | 1060,5 |
| Kogon | 6173,2 | 3156,7 |
| Buxoro sh. | 4033,3 | 2484,5 |
| Qorako‘l | 1611,7 | 936,0 |
| Kogon sh. | 6977,2 | 2820,1 |
| Qorovulbozor | 215118,9 | 39328,0 |

**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda**
**kichik biznesning ulushi**
*2021- yil yanvar-iyun, % da*

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 3173,1 mlrd. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 35,1 % ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Jondor tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Vobkent (99,8 %), Buxoro (99,7 %), Kogon (98,4 %), hamda Shofirkon (79,7 %) tumanlarida kuzatildi.






Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko‘rsatdiki, Qorovulbozor tumani (1,2 %) va Kogon shahri (34,4 %) sanoat ishlab chiqarish hajmidagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

**Viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari**

*(2020- yil 1- iyul  holatiga ko‘ra)*

Bugungi kunda viloyatda 4748 ta sanoat korxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 1293 tasi (faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 27,2 % i) Buxoro shahriga, 611 tasi (12,9 % i) G‘ijduvon tumaniga, 370 tasi (7,8 % i) Buxoro tumaniga, 365 tasi (7,7 % i) Kogon tumaniga, 332 tasi (7,0 % i) Jondor tumaniga, 325 tasi (6,8 % i) Romitan tumaniga, 302 tasi (6,4 % i) Shofirkon tumaniga to‘gri kelmoqda.




2020- yilning yanvar-iyun oylarida viloyatda 664 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 117 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 17,6 %) Buxoro shahrida, 101 tasi (15,2 %) G‘ijduvon tumanida, 63 tasi (9,5 %) Shofirkon tumanida, 55 tasi (8,3 %) Romitan tumanida, 53 tasi (8,0 %) Buxoro tumanida tashkil etildi.

## Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o‘sish sur’atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 70 ta loyiha bo‘yicha 475,9 mlrd. so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliylashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 8,5 mln. AQSh dollari miqdorida eksport qilindi.

Mahalliylashtirish dasturi doirasida 2021- yil yanvar-yiun oylarida 391 ta yangi ish o‘rinlari yaratildi, o‘tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda yangi tashkil etilgan ish o‘rinlari soni 166,4 % ni tashkil etdi.

### Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish Dasturining asosiy ko‘rsatkichlari (mlrd. so’m)

| | 2020- yil yanvar-iyun | 2021- yil yanvar-iyun |
|---|---|---|
| Loyihalar soni, birlik | 20 | 70 |
| Korxonalar soni, birlik | 25 | 98 |
| Ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so‘m | 553,6 | 475,9 |
| Eksportga qilingan mahalliylashtirilgan mahsulot hajmi, mln. AQSh dollar | 2,1 | 8,5 |
| Yaratilgan yangi ish o‘rinlari, birlik | 235 | 391 |